

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOMPYUTER TERMINLARINING
LEKSIK XUSUSIYATLARI

Xikmatullayeva M.L.

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi zamonaviy axborot terminologiyalari va kompyuter terminologiyalarining fransuz va o'zbek tillaridagi ayrim leksik xususiyatlari tahlil qilib o'tilgan.

Kalit so'zlar. jarayonlar, texnika predmetlari, xossalar, o'lchov birliklari nomlarini anglatuvchi terminlar, predmet va vositalar, kasb-kor nomlarini anglatuvchi terminlar.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari hozirda butun dunyoga tegishli bo'lgan atama hisoblanadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari deganda biz ko'z o'ngimizga informatika texnologiyalari, audio-video texnikalari va multimedia vositalarini keltirishimiz mumkin. Ular insonlarga bir-biri bilan aloqa qilish uchun axborot manbaalaridan foydalanish, ma'lumotlarni saqlash va turli xil video-audio, slaydlar tayyorlash imkonini beradi. Kompyuter esa informatikaning bir qurilmasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kompyuterning dolzarbligini yo'qotmagan holda, kompyuter terminlari haqida izlanish olib bormoqdamiz. Terminlarning rivojlanishi va yangi terminlarning yuzaga kelishi fan va texnika bilan uzviy bog'liqdir. Biz tahlilini boshlamoqchi bo'gan kompyuter leksikasi ham fan, ham texnologiya bilan bog'liq hodisa hisoblanadi shu sababli uni keng doirada tahlil qilishimiz mumkin.

Fransuz hukumatining lingvistik siyosati hozirgi fransuz leksikasining barcha boshqa tarmoqlarida bo'lgani kabi, hisoblash lug'atida ham ichki leksik o'zgarishlarga ustunlik bilan murojaat qilishiga olib kelgan. Ko'rib chiqilgan boshqa tillar o'zlarining kompyuter lug'atini inglizcha so'zlardan ko'p miqdorda olish orqali yaratdilar, ammo bu nisbatan yaqinda olingan so'zlar bo'lgani uchun, hozirda bu so'zlar ularning fonetik leksikasiga qanday qo'shilishi qiziqdir.

IT leksikasi bir paytlar yaratilgan va shaxsiy kompyuter ko'plab ilmiy yoki texnik sohalardagi mutaxassislar tomonidan qo'llaniladigan ish quroli ekanligini hisobga olsak, IT atamalari endi boshqa sohalarda ham qo'llaniladi. Biz o'zimizga tanish bo'lgan sohaviy tildagi, ya'ni tilshunoslik tilidagi bu turdagi bir nechta parchalarni ko'rsatish bilan cheklanamiz.

D.S.Lotte qanday kategoriyadagi so'zlar terminlashishi mumkinligi haqida gapirib: texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblari, detallar va h.k.); xossalar; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometrik obrazlar va h.k.); o'lchov birliklari¹

Jarayonlar (hodisalar): o'zbek tilida; muhandislik mehnatini kompyuterlashtirish, avtozagruska, qayta yuklash, parol qo'yish va h.k

Fransuz tilida; accès sans fil à l'internet, aide au dépannage, appariement de forms, montage, accepter, annuler, vérification/ contrôle orthographique, copie, exporter, importer.

texnika predmetlari: o'zbek tilida; kompyuter, printer, sistema bloki, klaviatura, modem, disk, flash kard, hujjat,

fransuz tilida; imprimante, mémoire cache, ordinateur portable, clavier

¹ Лотте Д.С. Основы построения научнотехнической терминологии. Вопросы теории и методики. - М., 1961. - С. 29.

xossalar: o'zbek tilida; ramka.

fransuz tilida; schema, circuit à configurations multiples, circuit intégré sur mesure, italique, parallèle, matrice

o'lchov birliklari: o'zbek tilida; bit, bayt, megabayt, megapiksill.

Fransuz tilida; bit, element binaire va h.k.

H.Dadaboyev o'zbek tilida terminologiya masalalari to'g'risida to'xtalib quyidagini ta'kidlaydi: "O'zbek terminologiyasining o'z boyligi hisobiga taraqqiy etishi ikki yo'l bilan voqealanadi: a) tilda mavjud, tayyor so'zlardagi yangi narsa-predmet va tushunchalarni ifodalashda foydalanish; b) o'zbek adabiy tili so'z yasash imkoniyatlari ishtirokida yangi terminlar yaratish². Mavjud lug'at va adabiyotlardan terminlarni tanlab olish jarayonida aniqlangan kichik mavzuviy guruhlarda 3ta asosiy terminologik kategoriyalar ajratildi³. Bular: 1) jarayonlar: passer du filtr, investigation informatique, , formatage d'une disquette, o'zbek tilida; dasturlash, identifikatsiyalash, ma'lumot jamlash, autentifikatsiyalash va avtorizatsiyalash va h.k lar kabi. 2) predmet va vositalar: ordinateure, modem, clavier, imprimante, DVD, CD carte, o'zbek tilida; sistema bloki, noutbook, printer skaner, mijoz kompyuter, analog-raqamli kompyuter va h.klar kabi. 3) kasb-kor nomlarini anglatuvchi terminlar: **hacker**, administrateur, -trice de site, de serveur, operateure, un serveur sur la toile d'araignée mondial o'zbek tilida; aloqa operatori, kompyuterchi, informatik va h.klar kabi.

Bulardan tashqari kompyuter leksikasida shunday leksikalar bor ki ularni faqat klaviatura bilan ishlaydigan shaxslar tushunishi mumkin ya'ni bular klaviatura so'zlaridir Masalan; Ctrl, Enter, Caps Lock, Pause, Alt, Shift, Tab, Delete, End Pg up, Pg down, Home, Num Lock, Ins, Break, Prtsc, SysRq, Scr Lk, Esc.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin ki, fransuz va o'zbek tilidagi terminlarning asosan ko'pchiligi ingliz tilidan olingan va jarayonlar, xossalar, texnika predmetlari, o'lchov birliklari va kasb-kor nomlarini anglatuvchi terminlarni uchratish mumkin. Bunday terminlar ko'pincha shu soha egalari uchun tanish hisoblanadi. Bundan tashqari klaviaturaga oid bo'lgan terminlar ham mavjud bo'lib, ularni faqatgina kompyuter yoki axborot texnologiyalari sohasidagi shaxslarga tushunishi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лотте Д.С. Основы построения научнотехнической терминологии. Вопросы теории и методики. - М., 1961. - С. 29.
2. Дадабоев Х. Ҳозирги ўзбек тили қурилишида ўзбек тилининг ўрни// Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2015. – Б.24 – 31.
3. Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол. ф.ф.д.(phd) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. - 11 б.
4. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати. – Т., 2010. – Б. 286
5. Кадирбекова Д.Х. Ахборот технологиялари соҳаси касб-кор номларини англатувчи терминлар// ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2015. – № 1/2.

² Дадабоев Х. Ҳозирги ўзбек тили қурилишида ўзбек тилининг ўрни// Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2015. – Б.24 – 31.

³ Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол. ф.ф.д.(phd) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. - 11 б.